

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti

Ingliz tili 2-fakulteti Ingliz tili Integrallashgan kursi 2 kafedrası o'qituvchilari Eshonkulova Lola Sayfullayevna va Artikova Maxim Turaboy qizi tomonidan Sirdaryo viloyati Sayhunobod tumani 8, 17, 20, 22 va 23 umumiy o'rta ta'lim maktablarida 14 aprel kuni olib borilgan ishlari yuzasidan

HISOBOTI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administrasiyasining 2021 yil 7 apreldagi 08-942-sonli topshirigi asosan O'zDJTU ga Sirdaryo viloyatining Sayhunobod va Mirzaobod tumanlaridagi umumta'lim maktablari birlashtirilganligi sababli Universitetning Ingliz tili 2-fakulteti, Ingliz tili Integrallashgan kursi 2 kafedrasining o'qituvchilari Eshonkulova Lola Sayfullayevna va Artikova Maxim Turaboy qizi quyidagi maktablarga (Sayhunobod tumani, 8, 17, 20, 22 va 23) o'rganish uchun 14 aprel kuni tashrif buyurishdi. Tashrif davomida quyidagi masalalar ijrosini ta'minlash maqsad qilingan.

- Maktablarda ingliz tili o'qituvchilarini darslarini kuzatish
- Maktab moddiy-texnik ta'minoti xaqida ma'lumot olish
- Maktab direktorlari va ingliz tili o'qituvchilari bilan hamkorlik doirasida amalga oshirilishi nazarda tutilgan ishlar rejasini muhokama qilish
- Universitet rektori tomonidan berilgan sovg'alarni maktabning ingliz tili o'qituvchilariga topshirish

Tashrif avvalida maktab direktorlari bilan tashrif mazmuni, maqsad va vazifalari, tomonlarning majburiyatlari xaqida fikr almashildi.

Ingliz tili o'qituvchilarining darslari kuzatildi, yuzaga kelgan kamchiliklar bilan birga yutuqlari ham muhokama qilindi. Suhbat davomida hamkorlik doirasida nazarda tutilgan tayyorlov (Training) mashg'ulotlari borasida ham fikrlar almashildi. Maktabning ingliz tili o'qituvchilariga universitet tomonidan berilgan kitoblar taqdim etildi.

Darslarni kuzatish davomida maktablar negizida quyidagi kamchiliklar aniqlandi:

8- maktab bo'yicha aniqlangan kamchiliklar:

- Ped mahorat: an'anaviy dars o'tish usullarga tayanib dars o'tilishi, o'qituvchilar yetarlicha ped mahoratga ega emas
- Moddiy-texnik ta'minot: xonalar yetarlicha jihozlanmagan

17- maktab bo'yicha aniqlangan kamchiliklar:

- Ped mahorat: an'anaviy dars o'tish usullarga tayanib dars o'tilishi, o'qituvchilar yetarlicha ped mahoratga ega emas
- Moddiy-texnik ta'minot: xonalar yetarlicha jihozlanmagan

20- maktab bo'yicha aniqlangan kamchiliklar:

- Kadrlar masalasi: ba'zi ingliz tili o'qituvchilari qayta tayyorlovdan o'tgan kelishgan o'qituvchilar ya'ni mutaxassisligi rus tili yoki jurnalsitika
- Ped mahorat: an'anaviy dars o'tish usullarga tayanib dars o'tilishi, o'qituvchilar yetarlicha ped mahoratga ega emas, o'qituvchilarni darsga jalb qila olmaslik

22- maktab bo'yicha aniqlangan kamchiliklar:

- Ped mahorat: an'anaviy dars o'tish usullarga tayanib dars o'tilishi

23- maktab bo'yicha aniqlangan kamchiliklar:

- Ped mahorat: an'anaviy dars o'tish usullarga tayanib dars o'tilishi







